



A'zam ABDULLAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: abdullayeva'zam@2023

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIALEKTIK ZARURIYATINI O'RGANISHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq tanqidiy muammolar ko'rib chiqilgan. Unda jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining asosiy tarkibiy qismi sifatida huquqiy bilimlarni shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Prezident Sh. Mirziyoyev qonun ustuvorligini ta'minlashda va huquqiy tamoyillarni hurmat qiladigan fuqarolarni tarbiyalashda huquqiy madaniyatning muhim ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, yoshlar, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot, huquqiy islohotlar, huquqiy ong, akademik tahlil, mustaqillik, demokratik islohotlar, huquqiy ta'lim, jamiyat taraqqiyoti, falsafiy o'leohovlar.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ДИАЛЕКТИЧЕСКОЙ НЕОБХОДИМОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены критические проблемы, связанные с повышением правовой культуры молодежи в условиях развития гражданского общества в современном Узбекистане. В ней подчеркивается необходимость формирования правовых знаний как основной составной части развития и стабильности общества. Президент Ш. Мирзиёев подчеркивает важность правовой культуры в обеспечении верховенства закона и воспитании граждан, уважающих правовые принципы.

Ключевые слова: Узбекистан, молодежь, правовая культура, гражданское общество, социальное развитие, правовые реформы, правосознание, академический анализ, независимость, демократические реформы, юридическое образование, социальное развитие, философское измерение.

SOME ISSUES OF STUDYING THE DIALECTIC NECESSITY OF FORMING CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines critical concerns related to the improvement of legal culture among young in the context of civil society development in modern Uzbekistan. It underscores the need of fostering legal knowledge as a fundamental component for societal advancement and stability. President Sh. Mirziyoyev emphasizes the essential importance of legal culture in upholding the rule of law and fostering a citizenry that respects legal principles.

Key words: Uzbekistan, youth, legal culture, civil society, social development, legal reforms, legal consciousness, academic analysis, independence, democratic reforms, legal education, societal advancement, philosophical dimensions.

Kirish. Zaruriyat bu-hodisa va hodisalarlar o'rtasidagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi dialektik kategoriyadir. Zaruriyat tevarak-atrofimizdagi barcha voqelikka daxldor tushuncha hamdir. Demak, fuqarolik jamiyati rivojlanishida ham zaruriyatning aloqadorligi bor. Chunki, fuqarolik jamiyati boshqa jamiyatlardan farq qilib, insoniyat tarixidagi taraqqiyotning yuqori boqichidir. XX asrning 90-yillariga kelib fuqarolik jamiyatiga talab osha boshladi. U jozibador mavqega aylana boshladi. Dunyodagi ko'pgina mamlakat vakillari chex, venger, polyak, nemis, ingliz faylasuf-olimlari fuqarolik jamiyati masalasiga ongli ravishda yondasha boshladilar. Aniqrog'i yangi jamiyat haqida tez-tez fikrlar o'rtaga tashlandi. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so'ng Amerika, G'arbiy Yevropada bunday holat keng tus oldi. Sababi inson qadrini e'zozlaydigan va unga munosib sharoit yaratadigan jamiyat muhim zaruriyatga aylana boshladi. Ijtimoiy faoliyatni o'zgartirish uchun harakat boshlandi. Bularga ta'sir qiluvchi sharoit paydo bo'la boshladi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlandi.

Birinchidan ijtimoiy faoliyatni aks ettiradigan jamoat tashkilotlarni ko'plab paydo bo'lishi;

Ikkinchidan davlat hokimiyati bilan parlamentlarning o'zaro munosabatlari;

Uchinchidan, davlat tuzilmalari va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi o'zgaruvchan dinamika murakkab dialektik jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi va bu yangi davrda yangicha tahlilni talab qiladi.

Ijtimoiy landshaft qonunlarga rioya qilishni, boshqaruv tizimini davlat budjetlaridan samarali foydalanishga, resurslarni adolatli taqsimlashga va huquqiy chegaralardan tashqarida

munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan paradigmani talab qiladi. Jamiyat farovonligi uchun zarur bo'lgan bunday urinishlar byurokratik me'yorlardan voz kechishni anglatadi.

Bu davr fuqarolik jamiyatini zamonaviy nuqtai nazardan qayta baholashni, davlat boshqaruvidagi demokratik jarayonlarning imperativini ochib berishni talab qiladi. Bunga jamiyat tuzilmalari bilan hamkorlikda qarorlar qabul qilish, davlat institutlarining muvozanatli asosni yaratish vakolatlarini cheklash va vakolatlarni nodavlat tashkilotlarga berish kiradi. Davlat boshqaruvi funksiyalarini demokrat-lashtirish muhim ehtiyoj sifatida namoyon bo'lib, islohotlarning fuqarolik jamiyati institutlarini barpo etish va rivojlantirishga qaratilganini ta'minlash – respublikamizda kun tartibiga kiritilgan.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan 755 ta respondentning "Fuqarolik jamiyati taraqqiy etdirishda davlat bevosita ta'sir ko'rsatadimi?" deganda nimalarni tushunasiz?, degan savolga respondentlarning 70.9% foizi "Ta'sir ko'rsatadi", 10.6 foizi "Yaxshi ishlar amalga oshirilmoqda" degan bo'lsa, 9.7 foizi "Turli partiyalar", 8.9 foizi "Nodavlat jamoat tashkilotlari" deb izohlagan.

Jumladan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishida o'z ifodasini topgan salmoqli yutuqlarga erishildi. Ushbu qonunchilik choralari kasaba uyushmalaridan tortib nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va diniy erkinliklargacha bo'lgan turli jihatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, jamiyat ishtiroki va boshqaruvni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qat'iy majburiyatni bildiradi.

Ushbu paradigma o'zgarishining markazida fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi keng ishtiroki, demokratiyaning ko'p qirrali tabiatining ramzi hisoblanadi. Siyosiy erkinlik, fuqarolarning huquqlari va davlat qurilishidagi faol ishtiroki demokratiyaning ko'p qirrali jihatlari ta'kidlab, fuqarolarning qarorlar qabul qilish, saylovlar va konstruktiv bahs-munozaralardagi ishtirokini qamrab oladi.

Jamiyatda demokratiyaning hayotiyligini baholash nozik mezonlarni o'z ichiga oladi: aholining qonunlardan xabardorligi, ularning ijrosi ustidan nazorat va fuqarolarning davlat ishlariga aralashish darajasi. Buni tushunish shunchaki siyosiy ritorikadan tashqari haqiqiy demokratik nutqning asosini tashkil qiladi.

Mavzu bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda 755 ta respondentning "Sizning yoshlar muammolari hal etishda fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, mahalla va h.k.)ning o'rni bormi?", degan savolga respondentlarning 69.7% foizi "Ha, albatta" deb fikr bildirgan bo'lsa, 15.4% foizi "Yo'q, sezilmaydi" degan fikrga to'xtalishgan. Respondentlarning ko'rsatib o'tilgan ushbu fikrlaridan kelib chiqib, yoshlar muammolari hal etishda fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, mahalla va h.k.)ning o'rni haqidagi g'oyalarni bo'yicha ko'proq targ'ibot ishlarini olib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Eng muhimi, bu sohalarida sezilarli yutuqlarga erishilmasa, demokratiya haqidagi munozaralar shunchaki siyosiy teatrqa aylanib qolish xavfi bor. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati evolyutsiyasi uchun qulay muhitni yaratish teskari amaliyotlardan voz kechishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda davlat va boshqaruv organlarining asosiy vazifasi rivojlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zaruriyat imkoniyati yaratilmaydi. Zaruriyatga qarshi faoliyat davom etaveradi. Hozirgi davrda davlatning, davlat hokimiyatining hamda boshqaruv organlarining asosiy vazifasi mamlakatdagi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy guruhlar fuqarolik jamiyatining endigina tashkil topib rivojlanayotgan turli institutlari bilan hamkorlikda ishlash va o'zaro hamkorlik qilish munosabatlarni ilg'or variantlarini izlash ham zaruriyatga aylanib bormoqda. "Nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi – respublikamizda tuzilmalarga oid ijtimoiy siyosat yuritishning yangi modelini yaratish, bu tuzilmalar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni echishga jalb etish, ularga axborot, maslahat, uslubiy, tashkiliy-texnik jihatdan ko'maklashish, shuningdek, davlat ijtimoiy buyurtmalari orqali bu tuzilmalar faoliyatini jadallashtirishdan iborat"[1].

Fuqarolik jamiyatining yashovchanligini ta'minlash asosan xalq manfaatlaridan kelib chiqib, uning bardavomligiga e'tiborni qaratishdir. Ya'ni umumxalq fikri bilan hisoblashish xalqni o'zaro munosabatlarga jiddiy e'tibor berish davlat organlarining diqqat markazida turishi lozim, o'z navbatida muammoga bunday yondashish fuqarolik jamiyatini tushungan holda unga intilishni kuchaytiradi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishni asosiy vazifalardan bir qismi bu – davlat hokimiyati faoliyatini, mansabdor shaxslar bilan fuqaro orasidagi munosabatlarni, ularni bir-birlariga nisbatan mas'uliyatli bo'lgan holda amalga oshirishni talab etish xususiyatidir. Bu jarayonlar muhayyo bo'lgandagina fuqarolarni jamiyatni siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy, madaniy strukturasi isloh etiladi. Fuqarolik jamiyatini shakllanishi davrida nafaqat siyosiy tashkilotlar, balki nosiyosiy birlashmalar, institutlar ham siyosiy hayotga o'zlarining nazariy va amaliy fikr, takliflari bilan o'z ta'sirini o'tkazib borishi kerak.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zaruriyati yana shunda ko'rinadiki, ularsiz fuqarolik jamiyati yashay olmaydi. Jumladan, hokimiyatni xalq tomonidan ifoda etilishi, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, odil sud hokimiyatini bo'lishi, fikrlar va mafkuralarning turlicha, ya'ni xilma-xil

bo'lishi, ijtimoiy guruhlar huquqlarini kafolatlanishida erkin saylov bo'lishi, siyosiy institutlarning erkin faoliyatlariga rioya qilishi kabildir.

Ma'lumki, sinergetika doirasida ham ijtimoiy munosabatlar o'rganilmoqda. Bular qatorida I.Prigojin, I.Sengers, G.Xaken, V.I. Arshinov, Ye.N. Knyazova, S.P. Qurdoshevlarni tadqiqotlarini olish mumkin. Ushbu olim va faylasuflar ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bifurkatsion bo'linishlar hamda fluktatsion o'zgarishlarga alohida diqqatni tortmoqdalar. Boshqa olim A.P. Nazaretyaning fikricha fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat murakkab xarakterga ega bo'ladi, u ko'p ma'noli tasodiflarni ham qamrab oladi. Bu soha o'zida klassik, noklassik, postnoklassik, ratsionallik elementlarini ham aks ettiradi[2].

Demochimizki, fuqarolik jamiyatini kelajagi haqida o'ylash uning ijobiy va salbiy oqibatlarini hisobga olish, dialektik, sinergetik yondashuvlar orqali mushohada qilishni unutmaslik lozim. Zero, hayot umuman taraqqiyot zaruriyati bilan birga tasodiflardan ham xoli emas.

Aynan zaruriyat va tasodif kategoriyalari orqali yangi erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning samarali yanada yangi konsepsiyalarni yaratishda foydalanish mumkin. Jamiyat ham tasodiflardan xoli bo'lmaydi. Mustaqillikka erishgandan so'ng ma'lum bir davrda respublikamizda kutilmagan tahlikali voqealar sodir bo'lgan edi. Xalqqa murojaat qilingandan so'ng xalqimiz yanada birlashib faoliyat yurita boshlagan edi. Aks holda qo'shni mamlakatlardagi fuqarolar jangi kabi O'zbekistonda ham avj olishi mumkin edi, ochig'ini aytganda fuqarolik jamiyatida ham tasodiflar bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Shu bois hozirdanoq fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish davrida u jamiyatning asosiy poydevorini mustahkamlash davr talabi.

Ma'lumki, hozirgi davr o'ta murakkab vaziyatni boshidan kechirmoqda. Shunday bo'lsa-da mamlakatimiz "O'z taraqqiyotining sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga qadam qo'yayotgan hozirgi murakkab va mas'uliyatli davrda o'z oldimizga aniq strategik maqsadlar qo'yib" olg'a qadam tashlamoqda. Bu qadamlardan biri fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ushbu harakat mamlakatimizni barcha sohalarida namoyon bo'lib, yildan-yilga xalqimiz farovonligini oshirishga ham qaratilgan. Zero, mamlakatlararo munosabatlarni ikki qutbli olamdan ko'p qutbli olamga o'tish, fuqarolarning ongi va qalbi uchun kurash jarayoni hech qanday mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik zaruriyatini ham o'rta qo'ymoqda. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlanidek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"[4].

Xulosa. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dialektik zaruriyatini va uning yoshlar orasida huquqiy madaniyatni yaxshilashdagi dolzarb masalalarni o'rganadi. Shuningdek, maqola O'zbekistondagi huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar va to'siqlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Bizning fikrimizcha, yoshlar orasida huquqiy ongni rivojlantirish, mustaqillik va demokratik islohotlarga erishish uchun zarurdir.

Umuman olganda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va uning huquqiy madaniyatni yaxshilashdagi ahamiyatini ta'kidlash mumkin. Bu jarayonlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash va yoshlarni demokratik qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Кадилов М. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг объектив ва субъектив омиллари: Фал. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. – Т., 2019. – 127 б.
2. Агрессия, мораль и кризиса в развития мировой культуры. Синергетика исторического прогресса. – М., 1996. – С. 184.

3. Янги Ўзбекистон – инсон қадри устувор бўлган жамият ва халқпарвар давлатдир. Ш.Мирзиёевнинг сайлов олди дастуридан (<https://uzlider.uz/news-of-party/10002>)
4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 125 б.